

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI

MUXTOROVA MUJGONA A'ZAMJON QIZI

Filologiya va tillarni o'qitish(ingliz Tili) yonalishi 2 bosqich 1- 23 guruh
talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda kichik biznesni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari hozirgi davrda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror o'sish omilidir.

Kalit so'zlar: Jamiyat, davlat kichik biznes, tadbirkorlik, bozor, xususiy, iqtisodiy, ijtimoiy, foyda, xojalik, xotin qizlar tadbirkorligi, imtiyozli kreditlar.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish aholi bandligi va doromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qollab quvvatlash maqsadida oxirgi 2.5 yilda prezidentning 50 dan ortiq farmon va qarorlari qabul qilingan. Jumladan tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan otkazish turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun davlat xizmatlar agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (biznes ombudsman) lavozimi joriy qilindi. Barcha hududlarda tadbirkorlik murojaatini qabul qilib Hal etishga ko'maklashadigan bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar mahkamasi huzurida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qollab quvvatlash davlat jamgarmasi faoliyati yolga qoyilib, unga 200 mlrd som va 50 mln dollar mablag' ajratildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilyotgan kreditlar hajmi oshdi. Bunday amaliy choralar oz natijasini bermoqda. Kichik biznes va tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun zarur bolgan qulay shart- sharoitlar yaratish- jamiyatda samarali amal qiladigan bozor munosabatlarini shakllantirish mulkdorlar sinfini qollab quvvatlash hamda fuqarolik jamiyatining yangi demokratik institutlarini qaror toptirishning muhim shartidir. Har qanday Jamiyat taraqqiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ozgarishlarning eng muhim omili bolib xizmat qiladi. Bu muhim vazifa hamda uni faol qilishning butun murakkabligi har Bir mamlakatning oziga xosligidan kelib chiqib kichik biznes va tadbirkorlikni qollab quvvatlash va uni rivojlantirishga noan'anaviy nostandart yonalishni taqazo qiladi, shubxasiz bunda, ushbu masalaning g'oyat muhim ahamiyat kasb etishini jamiyatning barcha azolarini anglab yetishlari

uning davlat tomonidan har tomonlama qo'llab quvvatlanishi iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlar o'rtasida barqaror sheriklik munosabatlarini qaror toptirish zarur.

tadbirkorlik - foyda olish maqsadida resurslardan yanada samarali foydalanishga qaratilgan xo'jalik faoliyatining muhim turidir. Ushbu jarayon quyidagilar orqali izohlanadi:

1. Tadbirkorlik kishilarning tavakkalchilik va ma'suliyat bilan bog'liq tashabbuskorlik faoliyati demakdir.

2. Tadbirkorlik cheklangan va innovatsion yondashuvni talab qiladigan resurslardan yanada oqilona foydalanishga qaratiladi.

3. Tadbirkorlik faoliyati qo'shimcha daromad va foyda keltirgan taqdirdagina o'zini oqlagan bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi 17 mlni xotin-qizlardir. Ularning manfaatlarini ta'minlash jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishi deb ta'kidlanishi buning yaqqol isbotidir. Ta'kidlash joizki 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 69- moddasida xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib har tomonlama ko'maklashish tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topshirishlariga, munosib har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish yuzasidan hamda 85-modada ayollar orasida ishsizlik darajasini ikki baravar kamaytirish 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o'zini-o'zi band qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilangan[1], shuningdek o'zbekiston respublikasi prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarni tadbirlari to'g'risidagi " PQ-5020 sonli qarorida xotin qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari munosib ish topshirishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, xotin qizlar tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag'larini belgilangan tartibda joylashtirish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risidagi qonunning tegishli qoidalari asosida mamlakatning uzoq muddatli maqsadlari va ustovliklariga muvofiq O'zbekiston respublikasi 2030 yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasini ishlab chiqilganligi ham ayollarning barcha sohalarda xususan, iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash bo'yicha belgilangan vazifalarning ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi omillar hamda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish.

Yakuniy qism: ko'plab xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki xotin-qizlarning tadbirkorlik va biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash dasturlari xususiy tadbirkorlik va kichik biznesda gender tengsizlikning kamayishiga, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ayollar faolligini oshirishga bandlik ko'rsatkichining yaxshilanishiga oxir-oqibatda esa, mamlakat iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ushbu yo'nalishda ularni qo'llab-quvvatlash hamda "O'zbekistonning biznes erkinlik" indikatori tarkibida ayollarning iqtisodiy integratsiyalashuvi subentikator bo'yicha reytingni oshirish yuzasidan ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib quyidagicha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov.D.Q, Ishmuhammedov.A E, Jumayev. Q.X Jumayev. Z.A makroiqtisodiyot darslik TTDIU 2004 240 B .
2. Ózbekiston respublikasi prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi 2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi ózbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60 sonli farmoni
3. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish" chora-tadbirlarni tadbirlari to'g'risidagi PQ-5020 sonli qarori.